



Koreys tilini o'qitishda o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasi

Ergasheva Yulduzxon G'ayratovna –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari hamda uni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, kommunikativ yondashuvning ahamiyati hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: koreys tili, madaniyatlararo muloqot, kompetensiya, kommunikativ yondashuv, til ta'limi, madaniyat, metodika.

Методология развития межкультурной коммуникативной компетенции у учащихся при обучении корейскому языку

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы формирования межкультурной коммуникативной компетенции у учащихся в процессе обучения корейскому языку, а также вопросы совершенствования методики ее развития. Обсуждается взаимосвязь языка и культуры, важность коммуникативного подхода и методы развития межкультурных коммуникативных навыков учащихся с использованием современных педагогических технологий.

Ключевые слова: корейский язык, межкультурная коммуникация, компетенция, коммуникативный подход, языковое образование, культура, методика.

Methodology for developing intercultural communication competence in students when teaching the korean language

Annotation. This article highlights the theoretical foundations of forming intercultural communicative competence in students during the process of teaching the Korean language, as well as issues regarding the improvement of its development methodology. Additionally, it discusses the interconnectedness of language and culture, the importance of the communicative approach, and methods for developing students' intercultural communication skills through the use of modern pedagogical technologies.

Keywords: korean language, intercultural communication, intercultural communicative competence, competence, communicative approach, language education, culture, methodology.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki boshqa xalqlarning madaniyatini tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ham talab etadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan turli xil islohotlar va chiqarilgan qaror va farmonlar natijasida xorijiy tillarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda koreys tiliga bo'lgan qiziqishning ortib borishi ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasini muhim vazifa qilib qo'yimoqda. O'rganilayotgan xorijiy tilning nafaqat grammatik tuzilishini, balki shu til madaniyatini ham bilish har bir ta'lim oluvchi uchun muhim vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish metodikasini yoritishdan, avval, kompetensiya tushunchasining mazmunini aniqlab olish muhimdir. Mazkur atama lotin tilidagi **competere** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "mos kelmoq", "munosib bo'lmoq", "layoqatli bo'lmoq" ma'nolarini anglatadi. Zamonaviy pedagogik talqinda kompetensiya shaxsning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda samarali qo'llay olishi, muammolarni mustaqil hal etishi hamda kutilgan natijaga erishish qobiliyati sifatida izohlanadi.

Tilshunoslikda "kompetensiya" atamasi XX asr o'rtalarida Noam Chomsky tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Olim ushbu tushunchani til tizimi haqidagi bilim hamda undan amaliy nutq jarayonida foydalanish imkoniyati bilan bog'lagan. Keyinchalik mazkur g'oya boshqa tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilib, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslaridan biri sifatida e'tirof etildi. Tadqiqotchi R.P.Milrud kompetensiyani shaxsning muayyan faoliyat sohasida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladigan bilim, tajriba, ko'nikma va strategiyalar majmui sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, kompetentlik doimiy o'z ustida ishlash, tajribani boyitish hamda amaliy faoliyatni takomillashtirish orqali shakllanadi. Demak, kompetent shaxs o'z bilim va tajribasidan unumli foydalangan holda samarali faoliyat yurita oladi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – bu o'quvchining turli mamlakat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. Shu sababli koreys tilini o'qitishda faqat grammatik va leksik bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, koreys xalqining milliy urf-odatlarini va an'analari, qadriyatlarini, muloqot me'yorlari va milliy mentalitetini ham o'rgatish muhim hisoblanadi. Koreys tili o'zining milliy-madaniy xususiyatlari bilan boshqa tillardan farq qiladi. Ayniqsa, koreys tilida hurmat kategoriyasi (존댓말), yosh va ijtimoiy mavqega asoslangan muloqot usullari muhim o'rin tutadi. Masalan, o'zbek tilida "siz" va "sen" shakllari mavjud bo'lsa, koreys tilida hurmat ifodalovchi grammatik shakllar ancha murakkab tizimni tashkil etadi. O'quvchi mazkur tizimning madaniy asoslarini tushunmasdan turib, koreys tilida to'g'ri muloqot qila olmaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Koreys madaniyatida muloqot jarayoni nafaqat til birliklari, balki ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liq. Jumladan, yoshi katta yoki lavozimi yuqori shaxslarga murojaat etishda 안녕하세요?, 감사합니다, 죄송합니다 kabi hurmat shakllari qo'llaniladi. Aksincha, yaqin do'stlar yoki tengdoshlar bilan muloqotda 안녕?, 고마워, 미안해 kabi norasmiy shakllardan foydalaniladi. Bundan tashqari, koreys xalqida ovqatlanish madaniyati ham muhim o'rin tutadi. Masalan, ovqatlanishdan oldin 잘 먹겠습니다, ovqatdan so'ng esa 잘 먹었습니다 iboralarini aytish

suhbatdoshga nisbatan hurmat va minnatdorlik ifodasi hisoblanadi. Shuningdek, suhbat davomida 선생님, 사장님 kabi murojaat shakllaridan foydalanish hamda buyumlarni ikki qo'l bilan uzatish yoki qabul qilish koreys madaniyatiga xos odob-axloq me'yorlaridan biridir. Mazkur lingvomadaniy xususiyatlarni o'zlashtirish o'quvchilarda nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun koreys tili darslarida lingvistik bilimlar bilan bir qatorda madaniy bilimlarni ham berish muhim hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Bilim komponenti** – o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, an'analari va qadriyatlari haqidagi bilimlar.
2. **Ko'nikma komponenti** – turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish, madaniy tafovutlarni tushunish va ularga moslashish qobiliyati.
3. **Motivatsion komponent** – boshqa madaniyatlarga nisbatan qiziqish va hurmat.
4. **Aks ettiruvchi komponent** – o'z madaniyatini boshqa madaniyat bilan qiyoslab baholash qobiliyati.

Koreys tilini o'rganishda mazkur komponentlarning uyg'un rivojlanishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini yanada mustahkamlaydi.

Koreys tilini o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish usullari

Autentik materiallardan foydalanish. Koreys filmlari, seriallari, teleko'rsatuvlari, yangiliklar va videoroliklar o'quvchilarning madaniy bilimlarini kengaytiradi. Bunday materiallar orqali o'quvchilar koreyslarning kundalik hayoti, muomala madaniyati va ijtimoiy munosabatlari bilan tanishadilar.

Taqqoslash metodidan foydalanish. O'zbekiston va Koreya madaniyatlarini qiyosiy o'rganish o'quvchilarning madaniy tafovutlarni anglashiga yordam beradi. Masalan, salomlashish, kattalarga hurmat ko'rsatish, oilaviy qadriyatlar kabi mavzularni taqqoslash orqali madaniyatlararo tafakkur rivojlanadi.

Rolli o'yinlar va kommunikativ topshiriqlar. Turli muloqot vaziyatlarini modellashtirish o'quvchilarda amaliy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi. Masalan, mehmon kutish, restoranda buyurtma berish, ish suhbatida qatnashish kabi vaziyatlar asosida rolli o'yinlar tashkil etilishi mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Onlayn Zoom platformalar, videokonferensiyalar va xalqaro ta'lim loyihalari orqali koreyalik tengdoshlar bilan muloqot qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa real madaniyatlararo tajriba orttirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki xalqaro muloqotga tayyorligini ham oshiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, koreys tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy til ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarning til va madaniyatni uyg'un o'zlashtirishlari ularning xalqaro kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga imkon yaratadi. Shuning uchun koreys tili ta'limida kommunikativ va madaniyatlararo yondashuvlarga asoslangan metodikani takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
2. Kramsch C. *Language and Culture*. Oxford University Press, 1998.
3. Fantini A. *Exploring and Assessing Intercultural Competence*. Federation of the Experiment in International Living, 2009.

4. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages). Council of Europe, 2020.
5. 김정숙. 「한국어 교육과 문화 교육」. 한국문화사, 2018.
6. 박영순. 「외국어로서의 한국어 교육론」. 한국문화사, 2017.